

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.B.04.09.M RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

MIRZABAEV TIMUR BISENBAY ULI

**DORIVOR O‘SIMLIKLAR KURSINI O‘QITISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH
(pedagogika oliy o‘quv yurtlari misolida)**

13.00.02 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus - 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Oglavlenie avtorefarata dissertasii doktora filosofii (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Mirzabaev Timur Bisenbay uli

Dorivor o‘simliklar kursini o‘qitish metodikasini takomillashtirish
(pedagogika oliy o‘quv yurtlari misolida)..... 3

Мирзабаев Тимур Бисенбай улы

Совершенствование методики преподавания курса лекарственных
растений (на примере высших педагогических учебных
заведений)..... 21

Mirzabaev Timur Bisenbay uli

Improving the methodology for teaching the course on medicinal plants
(using pedagogical universities as an example)..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yhati

Spisok opublikovannykh rabot
List of published works..... 45

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.B.04.09.M RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

MIRZABAEV TIMUR BISENBAY ULI

**DORIVOR O‘SIMLIKLAR KURSINI O‘QITISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH
(pedagogika oliy o‘quv yurtlari misolida)**

13.00.02 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus - 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.PhD/Ped12113 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.karsu.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jangabaeva Aygul Sarsenbaevna

qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent

Rasmiy opponentlar:

Qaraxonova Lobarxon Musoxonovna

pedagogika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Eshmuratov Roxat Artikbaevich

biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:


Urganch davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.B.04.09.M raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026 yil «30» iyul kuni soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Universitet majlislar zali. Tel.: (+99861) 223-60-47, faks (+99861) 223-60-78, E-mail: karsu.info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№550-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1 uy, Tel.: (+99861) 223-59-49.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «15» iyul kuni tarqatildi.

(2026 yil «15» iyul №12-raqamli reestr bayonnomasi)



M.A.Jumanov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

M.K.Begjanov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.f.d.,
dotsent

Ya.I.Ametov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori PhD dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida ta'limsifati va mazmunini tubdan isloh qilish, shu asosda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda barkamol avlodni voyaga yetkazish muhim strategik yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Ta'lim tizimiga e'tibor barcha rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirish uchun poydevor ekani e'tirof etilgan. YUNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda o'tkazilgan Butunjahon ta'lim forumida qabul qilingan "Ta'lim – 2030-yilgacha" Inchxon deklaratsiyasida ta'lim sifatini yuqori darajada takomillashtirish, ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalaridan foydalanish yo'llarini ishlab chiqish, pirovardida erishilgan natijalar darajasini aniqlashga imkon yaratadigan mexanizmlarni ta'lim amaliyotiga samarali tadbiq etish masalalariga e'tibor qaratilgan¹. Mazkur konsepsiya ta'limni rivojlantirishni belgilovchi kuch ekanini tan olgan holda, uning natijasida insonlar hayotini ijobiy tomonga o'zgartirishdan iborat.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida biologik tadqiqotlar jumladan dorivor o'simliklarni o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoning yetakchi ta'lim muassasalarida dorivor o'simliklarni o'rganish yo'nalishda tadqiqotlar keng qamrovda amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimiga pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish natijasida barcha fanlar kabi dorivor o'simliklar kursini kasbiy sohalarga yo'naltirib o'qitish tizimini takomillashtirish, ta'lim oluvchilarning barcha jihatlarini e'tiborga olish orqali maqsadli innovatsion modellarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi. Dorivor o'simliklar kursini o'qitish va uni kasbiy faoliyatga yo'naltirib o'qitish yetishtirilayotgan kadrlarni mehnat bozori talablari asosida tayyorlash, tabiiy layoqatini to'liq ro'yobga chiqarish, ta'lim oluvchilarda kognitiv faoliyatni rivojlantirishga zamin tayyorlaydi.

Mamlakatimizda milliy ta'limni xalqaro talablar asosida modernizatsiya qilish, bo'lg'usi pedagoglarni tayyorlash, kasbiy mahoratini shakllantirish jarayonida keng ko'lamda islohatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun" shiori ostida jadal rivojlanib borayotgan respublikamizda ta'lim jarayoniga innovatsion va raqamli texnologiyalarni tadbiq etish orqali uning sifati va samaradorligini oshirish, nazariya va amaliyot birligini integratsiyalash orqali ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlaridan samarali foydalanilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning ilmiy ijodkorlik qobiliyatlari va kognitiv faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan, zamon talabiga javob beradigan metodik ta'minotni yaratishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, dorivor o'simliklarni kursida o'rin olgan ma'ruza, amaliy, laboratoriya, dala amaliyotlari mashg'ulotlarini tashkil etish sohasida ham ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. 2020-yil "Ilm, ma'rifat va

¹ Incheon declaration // Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 may 2015. Incheon, Republic of Korea).

raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” davlat dasturida² ta’limni modernizatsiya qilish ustuvor vazifalar qatorida belgilangan. Mazkur vazifa yechimlaridan biri ta’lim jarayonida, jumladan “Dorivor o‘simliklar” fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalari talabalarni kognitiv faoliyatga yo‘naltirib o‘qitish muxim hisoblanadi, bu esa olib borilayotgan tadqiqotning dolzarbligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-sonli, 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6108-sonli, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-sonli Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.04.2020 y. PQ-4670-son "Yovvoyi holda o‘suvi dori dori o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori [9], Dorivor o‘simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 20.05.2022 yildagi 251-sonli qarori[10], 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-sonli Qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyat sohasiga tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijlik olimlar Garet M.S., Porter A.C., Desimone L., Birman B. F., & Yoon K. S [86] Gary Thomos [87] va boshqalar tomonidan amaliy mashg‘ulotlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish masalalari o‘rganilgan, talabalarning kasbiy va kreativ kompetentligini shakllantirish hamda rivojlantirish muammolari bo‘yicha Lederman N. G., Abd-El-Khalick, F., & Bell, R. L. Views [55], Liang L. Chen, S., & Chen, X [37] kabilar ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan.

MDH davlatlarida professional ta’limda pedagogik va ijtimoiy tamoyillarning tizimli tahlili, modul tizimi, pedagogik texnologiyalarga asoslangan konsepsiya, amaliy mashg‘ulotlar nazaryasi va amalga oshirishda ta’lim texnologiyalari bo‘yicha Ye.V. Andrienko[16] , A.Yu. Belogurov [20], L.V. Berenger [22], A.P. Dyachenko [25], A.M. Dekach[26] , T.V. Golikova, Ye.A.Galkina, V.M. Pakulova, [29], N.Yu. Ignatova [32] va boshqalar tadqiqot olib borgan. T.A.Ilina

² O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 22-iyul 2020 yildagi “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” Davlat dasturining 2020-yil birinchi yarim yilligida bajarilishi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hisoboti to‘g‘risidagi Qarori.

[31], G.P.Malaxov [39], L.M.Martyanova [40], V.L. Pastushenko [98], I.N.Pustiriskiy, V.N. Proxorov [99], S.Yu.Radelov [100] kabilarning ishlarida biologiya fanini o'qitish metodikasi va shuningdek dorivor o'simliklarning turli aspektlari ilmiy-pedagogik jihatdan tadqiq etilgan.

Respublikamizda oliy pedagogik ta'limning shakllanishi va rivojlanish jarayoni, qonuniyatlari va tendensiyalari, o'qitishga kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik kadrlar hamda bo'lajak o'qituvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash, kasbiy faoliyatga yo'llash, pedagogik klaster muammolari taniqli pedagog olimlar N.A.Muslimov [47], B.S.Abdullayeva, A.A.Abdugodirov, J.O.Tolipova [48], U.Sh.Begimqulov, U.I.Inoyatov[101], I.E.Shernazarov [69] va boshqalarning ishlarida yoritilgan. Biologiya ta'limi va o'qitish metodikasini takomillashtirish, didaktik materiallar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalalari A.T. G'ofurov, J.O. Tolipova[59], S.Jumaev[35], S.I. Zayniev[66] U.E.Raxmatov[102], I.T.Azimov[71], G.S.Ergasheva, N.Karimova[27] va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Adabiyotlar tahlilidan ma'lum bo'ldiki, bo'lajak mutaxassislarni kasbga yo'naltirib o'qitish, biologiya ta'limi mazmuni va o'qitish metodikasini takomillashtirish, didaktik va o'lkashunoslik materiallar, texnik vositalar va innovatsion ta'lim texnologiyalardan foydalanish masalalari bo'yicha qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan, ammo "Dorivor o'simliklar" fanidan tashkil etiladigan mashg'ulotlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish muammosi bo'yicha maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpog' davlat universiteti "Dorivor o'simliklar agroekologiyasi va introduktsiyasi" kafedrasining "Qoraqalpog'iston dorivor o'simliklar dunyosining florasi, sistematikasi va bioekologik xususiyatlarini tadqiq qilish va olingan natijalarni maxsus fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirishda foydalanish" ilmiy-tadqiqot mavzusi (2022-2025) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi "Dorivor o'simliklar" kursini mavzularini innovatsion texnologiyalar integratsiyasi asosida tashkil etish orqali o'qitish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"Dorivor o'simliklar" kursidan talabalarni kognitiv faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq ilg'or tajribalar asosida mashg'ulotlarni tashkil etishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

"Dorivor o'simliklar" kursini o'qitish metodikasini modeli va baholash mezonlari, axborot metodik ta'minotini pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali takomillashtirish;

talabalarni "Dorivor o'simliklar" kursidan dala amaliyoti davomida o'quv bilish faoliyatini faollashtirish va kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodik tizimini ta'limni interfaol muhitga moslashuvchanligini barqarorlashtiruvchi adaptiv va amaliy yo'nalganlik tamoyillari asosida takomillashtirish;

taklif qilingan metodika samaradorligini tajriba-sinovdan o'tkazish, "Dorivor o'simliklar" kursini mashg'ulotlarda kasbga yo'naltirib o'qitish metodikasini

innovatsion texnologiyalar integratsiyasi asosida takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida pedagogika oliy ta'lim muassasalari biologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalariga "Dorivor o'simliklar" kursidan o'qitish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Qoraqalpoq davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti, Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutidan 476 nafar talabalar jalb etilgan.

Tadqiqotning predmeti oliy ta'lim muassasalarida "Dorivor o'simliklar" kursini o'qitish metodikasini takomillashtirish mazmuni, shakllari, usullari va vositalari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, anketa so'rovnoma, topshiriqlar, pedagogik tajriba-sinov, savol-javob, test, qiyosiy va matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

"Dorivor o'simliklar" kursidan mashg'ulotlarni loyihalashtirish jarayonida ilg'or xorijiy tajribalarning metodologik tendensiyalari asosida talabalarni kasbga yo'naltirib o'qitish bilan bog'liq innovatsion muhitini yaratish, biologiya ta'limi mazmunini intensiv tarzda kengaytirish, tayanch va fanga doir kompetensiyalar bilan integrativ, refleksiv aloqalarini ta'minlash, iyerarxik tuzilishdagi mashqlar hamda interfaol ta'lim texnologiyalaridan adaptiv holda foydalanish barqarorligini diagnostikalash asosida aniqlashtirilgan;

"Dorivor o'simliklar" kursidan mashg'ulotlarni o'tkazish davomida kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslangan holda talabalarning innovatsion, kreativ fikrlashlariga imkon beradigan standart va nostandart topshiriqlar, kognitiv fikrlashning moslashuvchanligi kabi sifatlar bilan identivligini ta'minlash, fanlararo o'zaro aloqadorlikni amaliy-funksional, refleksiv, korreksion integratsiyalash, oddiydan murakkablikka qarab bosqichli algoritmiga adaptativ omillarining o'zaro bog'liqligi asosida ishlab chiqilgan;

"Dorivor o'simliklar" kursidan mashg'ulotlarda bo'lajak mutaxassislarning o'quv-bilish va kasbiy faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlari bilish motivatsiyasini ketma-ketligini ta'minlash, kreativ fikrlash elementlarini innovatsion faoliyatiga adaptiv va amaliy yo'nalganlik didaktika tamoyil sifatida kiritish, kasbiy va shaxsiy kompetensiyalaridan noodatiy (kutilmagan) vaziyatlarda qo'llay olishga qaratilgan innovatsion va raqamli axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida takomillashtirilgan;

talabalarning kasbiy faoliyatini shakllantirishda "Dorivor o'simliklar" kursidan o'zlashtirish darajalari, baholash mezonlari, mazmuni, o'zaro bog'liq jihatlarini belgilovchi kasbiy-pedagogik ko'rsatkichlari motivatsion, tashkiliy va o'quv metodik ta'minotini hamda mashg'ulotlarni unifikatsiyalash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

"Dorivor o'simliklar" kursidan ta'lim jarayonini samarali tashkil etish maqsadida pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarga asoslangan mutaxassislarning dorivor o'simliklar bo'yicha tushunchalarni to'liq o'zlashtirishiga yo'naltirilgan mashg'ulot topshiriqlari asosida takomillashtirilgan;

OTMning Dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi "Dorivor o'simliklar" fanining dasturi asosida nazariy, amaliy, virtual mashg'ulotlar mazmuni takomillashtirilgan, ta'lim yo'nalishi malaka talablari asosida fanning sillabus, o'quv-uslubiy majmua ishlab chiqish orqali takomillashtirilgan;

oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun "Genetika va selektsiya asoslari (selektsiya)" o'quv qo'llanma asosida metodik tayyorgarligini oshirish texnologiyalari yaratilgan;

biologiya fani o'qituvchilari, oliy ta'lim muassasalarining talabalari uchun "O'simliklar va hayvonlar evolyusiyasi" o'quv qo'llanmasi yaratilgan, majmual, tizimli, integrativ, motivatsion tamoyillar asosida mashg'ulotlarning uslubiy ta'minoti takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi o'qitishning metodologik yondashuv va tamoyillarga asoslanganligi, foydalanilgan materiallar hamda nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari va natijalarining yaxlitligi ta'minlanganligi, mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasini takomillashtirish uchun ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning aprotatsiyadan o'tkazilganligi, tadqiqot davomida olingan natijalar yetakchi respublika va xorijiy nashrlarda chop etilganligi, tajriba-sinov natijalari samaradorligi matematik-statistik metodlar yordamida qayta ishlanganligi va vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo'lajak mutaxassislarning "Dorivor o'simliklar" fanidan mashg'ulotlarda kasbiy faoliyatni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik, metodik shart-sharoitlari va pedagogik imkoniyatlari aniqlangan, ta'lim yo'nalishi o'quv rejasida ajratilgan soatda talabalarning belgilangan asosiy biologik bilim va tushunchalar, ko'nikma va malakalarni to'liq o'zlashtirishi, o'qitish sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan o'quv metodik tizim ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kasbiy-metodik, muammoli izlanish vaziyatlarni qo'llashga oid amaliy mashg'ulot topshiriqlari va "Talabalarning kasbga yo'naltirib o'qitishda "Dorivor o'simliklar"dan mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasini loyihalash va qo'llashning metodik tizimi" ishlab chiqilganligi, bo'lajak mutaxassislarning kasbga yo'naltirib o'qitish metodikasini takomillashtirishga doir amaliy mashg'ulot topshiriqlarini tuzishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish uchun zaruriy tashkiliy metodik muhit yaratilganligi, baholashning nostandart tizimlari takomillashtirilganligi, taklif etilgan diagnostik vositalardan talabalarda fanga oid kompetensiyalarning rivojlanganlik darajasi aniqlanganligi, kasbiy kompetentligini oshirishda fanga oid mashg'ulotlarning takomillashganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dorivor o'simliklar kursini o'qitish metodikasini takomillashtirish (pedagogika oliy o'quv yurtlari misolida) bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

"Dorivor o'simliklar" kursidan mashg'ulotlarni tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari va metodik xususiyatlari talabalarni kasbga yo'naltirib o'qitish bilan

bog'liq ilg'or tajribalar asosida biologiya ta'limi mazmunini nazariy va amaliy jihatdan kengaytirish, fanga va kasbga yo'naltirishga oid xususiy ko'nikmalar tayanch kompetensiyalar bilan integrativ qayta aloqasini ta'minlash, tabiiy-ilmiy savodxonlikka va kasbiy-shaxsiy tayyorgarlikka qo'yilgan minimum talablarga ustuvorlik berish orqali aniqlashtirishga oid tavsiyalar "O'simliklar va hayvonlar evolyusiyasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Kengashining 2025-yil 04-dekabrda 4/3.2-sonli qarori asosida berilgan 2025-559U-867 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash imkoni yaratilgan;

"Dorivor o'simliklar" kursidan mashg'ulotlarni faoliyatli, kompetensiyaviy, innovatsion, kreativ fikrlash imkon beradigan hamda iyerarxik, izchillik, oddiydan murakkablikka o'tish prinsiplari asosida topshiriqlar tizimini ishlab chiqishga oid tavsiyalar "O'simliklar va hayvonlar evolyusiyasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Kengashining 2025-yil 04-dekabrda 4/3.2-sonli qarori asosida berilgan 2025-559U-867 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, auditoriya mashg'ulotlarda talabalarni kasbga yo'naltirib o'qitish metodikasini takomillashtiruvchi topshiriqlar tizimini ishlab chiqishga erishilgan;

"Dorivor o'simliklar" kursidan mashg'ulotlarda bo'lajak mutaxassislarning o'quv bilish faoliyatini faollashtirish va kasbiy faoliyatini rivojlantirish imkoniyatini beradigan faol va interfaol texnologiyalar asosida takomillashtirishga oid xulosalar "O'simliklar va hayvonlar evolyusiyasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Kengashining 2025-yil 04-dekabrda 4/3.2-sonli qarori asosida berilgan 2025-559U-867 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, talabalarning mashg'ulotlarda o'quv bilish faoliyatini va kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodik tizimini takomillashtirish samaradorligi oshgan;

"Dorivor o'simliklar" kursidan talabalarni kasbga yo'naltirib o'qitishning maxsus tanlab olingan pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, keys topshiriqlari, talabalar bilimni baholashning nostandart usullari, mahorat darslari, ta'limni tashkil etishning individual, kichik guruhlarda va yalpi o'qitish shakllari integratsiyasiga asoslangan mashg'ulotlarni tashkil etish o'quv-metodik ta'minotini yaratishga doir amaliy taklif va tavsiyalar "Dorivor o'simliklar" kursini o'qitishda keng foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi kasbiy ta'lim agentligining 2026-yil 13-fevralda AA-01-02/292-1-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, "Dorivor o'simliklar" kursini o'qitish samaradorligi oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta Respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy-metodik ish chop etilgan. Shulardan, 2 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi Respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 152 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Dissertatsiyaning **Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqot ishining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Oliy o'quv yurtlarida ta'lim jarayonini takomillashtirishning nazariy-ilmiy asoslari”** deb nomlangan bo'lib, unda oliy ta'limni modernizatsiyalashtirish sharoitida biologiyadan dorivor o'simliklar kursi o'qitish jarayoniga zamonaviy yondashuvlar, dorivor o'simliklar kursidane tashkil etiladigan o'qitish shakllari va uni tashkil etish metodikasining o'rganilganligi va ularni tashkil etish xolati, dorivor o'simliklar kursini tashkil etishning maxsus pedagogik texnologiyalari yoritilgan.

Pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim mazmunini chuqurlashtirish, ta'limning amaliy tamoyillarini takomillashtirish, ta'lim jarayonlarini intensivlashtirish, ta'lim texnologiyalarini mukammallashtirish, ta'lim va tarbiyaning birligini kuchaytirish, xususan, oliy ta'lim mazmuniga nafaqat bilim, ko'nikma va malaka, balki umuminsoniy madaniyatni tashkil qiluvchi – ijodiy faoliyat tajribasi, atrof-muhitga nisbatan ijobiy munosabatlarni ham kiritish g'oyasi kun tartibiga dolzarb vazifa ekanligi o'z isbotini topmoqda. Ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, u bilan bog'liq materiallarni boyitish, pedagoglar tomonidan mashg'ulotlarni sifatli o'tilishi va ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonida modulli ta'lim texnologiyasi, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, didaktik o'yin texnologiyalari, muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yo'llari ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga tatbiq etish, o'qitish metodikasini takomillashtirishda o'ziga xos o'rin tutadi.

Tadqiqot davomida ta'lim tizimini tashkil etish va unga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish tushunchalari borasida, xorijiy, MDH davlatlari hamda respublikamiz olimlarni tomonidan bildirilgan turli fikr va mulohazalar o'rganildi.

Biologik fanlar o'quv rejasiga kiritilgan dorivor o'simliklar fani mazmuni tahlil qilindi va bu fanni o'qitishda pedagogik texnologiyalarni bu kursni o'qitish jarayoniga keng tatbiq etish, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, ularning kasb mahorati, bilish darajasini muntazam yuksaltirish va bevosita pedagog hamda talabalarning pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali keutilgan natijalarga erishish mumkinligi asoslandi.



1-rasm. Dorivor o'simliklar kursini o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli

Fan va texnika jadal rivojlanib borayotgan bugungi globallashuv zamonida biologik fanlarni o'qitishda yangi ilmiy metodik yondashuvni tatbiq etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishning metodik mazmunini

o'zgartirish, talabalarning o'z mutaxassisligi bo'yicha axborotlar olishlarni keng ta'minlash, talabalarning fanga bo'lgan qiziqishlarini va ijtimoiy faolligini, tabiatga nisbatan kuzatuvchanligini oshirish uchun zamonaviy o'qitish vositalari, ta'lim tarbiya tizimi, ma'naviy va ma'rifiy, pedagogik texnologiyalardan foydalanish kabilarning samaradorligini oshirish vazifalari qo'yildi.

Talabalarda dorivor o'simliklarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishning samarali tomoni mashg'ulotlarda turli pedagogik texnologiyalar, jumaladan modul ta'lim texnologiyalari, hamkorlikda o'qitish texnologiyalari, didaktik o'yin texnologiyalaridan keng foydalanishdir. Bular asosida olingan har bir metodik ilmiy yangilik, darsni tashkil etishning zamonaviy usullari talabaning yangicha fikrlashga va dunyoqarashini takomillashtirishga asos bo'lib xizmat qiladi (1-rasmga qarang).

Dissertatsiyada pedagogik texnologiyalardan foydalanib talabalarning ilmiy-metodik savodxonligini oshirish mumkinligi, o'quv jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish lozimligi e'tirof etilib, mazkur muammoni yechimini topishga muvaffaq bo'lindi.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta'lim muassasalarida “Dorivor o'simliklar” kursini o'qitish metodikasini takomillashtirishning metodik asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobi birinchi paragrafida dala amaliyoti davomida dorivor o'simliklar bilan tanishish va o'rganish metodikasini didaktik ta'minoti, metod va vositalari shakllari ochib berilgan.

Dorivor o'simliklar bilan tanishish talabalarni dorivor xom ashyo yig'ish bo'yicha ijtimoiy foydali, tabiatni muhofaza qilish, ularni ko'paytirish kabi ijtimoiy foydali ishlarni bajarishga jalb etish bilan bir qatorda ob'ektlarni tabiiy sharoitda tanib olish, biologik ob'ektlarni aniqlash kabi bilish faoliyatini rivojlantirishda dala amaliyotini muxim rol o'ynashi yoritildi.

“Dorivor o'simliklar” dala amaliyotlarini asosiy vazifasi biologiya predmetlari asosida shakllangan bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni yanada kengaytirish, mustahkamlash va chuqurlashtirish hamda talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malakalarni keyingi tadqiqot bosqichlarida yanada murakkabroq bo'lgan nazariy bilimlarni o'zlashtirish, mustahkamlash, amalda qo'llash qo'llash bo'yicha ko'nikma va malakalar uchun nazariy asos bo'lishi va amaliy ishlarni bajarish davomida talabalarga fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasiga oid fikrlar berilgan. Dala amaliyoti davomida talabalarni dorivor o'simliklar bilan tanishtirish bilan bir qatorda tabiatni muhofaza qilish, ijtimoiy foydalai ishga jalb qilish bilan xolda tashkil etish metodikasi yoritilgan. Shuningdek dala amaliyoti davomida amaliyot rahbari va talabalar tomonidan amalga oshiriladigan topshiriqlar mazmuni keltirib o'tilgan. Dala amaliyoti davomida tashkil etiladigan ekspeditsiyalar mazmuni ilmiy metodik jihatdan yoritilgan. Shuningdek tabiiy sharoitda o'simliklarni aloxida turlarini o'rganish, shu bilan birga ma'lum bir xududda tarqalgan yashash muhiti o'zaro o'hashash bo'lgan o'simliklar guruhi fitotsenozlarni ham o'rganish metodlari hamda oliy o'quv yurti pedagog olimlarini tajribasidan kelib chiqib tabiiy sharoitda talabalar tomonidan aloxida o'simlik turlarini o'rganish va ular o'rtasida tajaribalar olib borish haqida fikrlar ochib berilgan. Ayrim o'simlik turlari va o'simlik jamoasini

o'rganish bo'yicha reja mazumin yoritib berilgan. Tabiiy sharoitdagi foydali, dorivor o'simliklarni tanib olish va o'simliklarni yig'ish metodikaga to'xtab o'tilgan.

Oliy ta'limda o'quv jarayonini muhim tarkibiy qismi laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar xisoblanadi. Har qanday pedagogik tizimlar qatorida laboratoriya va amaliy mashg'ulot tizimi tuzilmaviy va funksional tarkibiy qismlardan iborat. Amaliy mashg'ulot pedagogik tizimidagi pedagog va talabalar faoliyatiga nisbatan funksional tarkibiy qismlar: gnostik, faoliyat, konstruksiyalash, loyihalash, kommunikatsiya, tashkil etish, korreksiyalashdan iborat. Samarali amaliy mashg'ulotlar tizimi uchta kirish, asosiy, yakunlochi qismlardan iborat bo'lib, mashg'ulotning asosiy qismi balki kirish va yakunlovchi qismlari ham mavzuning o'zlashtirishning zaruriy bo'g'imlari hisoblanadi.

Pedagog tomonidan mashg'ulot o'tishga tayyorgarlik quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: taqvim mavzuli reja asosida amaliy mashg'ulot mavzusi, ta'limiy maqsad va vazifalari, tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash; talaba mashg'ulotda bili olishi va o'zlashtirib olishi zarur bo'lgan asosiy mazmun; amaliy mashg'ulot strukturasi, turi, metod, vositalari, fanlararo va fandagi bog'lanishlarni aniqlash va undan mashg'ulotda foydalanish yo'llarini belgilash; kabilarni qamrab oladi.

Shu sababli ham dorivor o'simliklar kursi o'quv rejasi va dasturida berilgan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda pedagog va talaba faoliyatidagi maqsad vazifalari ochib berilgan. Shuningdek bir nechta amaliy mashg'ulotlar o'tkazish mazmuni keltirilgan.

Oliy o'quv yurti Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nalishi talabalari uchun dorivor o'simliklar bilan atroflicha tanishishda laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish o'ziga xos o'rinda turadi. Chunki laboratoriya mashg'ulotlari davomida talaba dorivor o'simliklar tarkibidagi moddalarni aniqlashni o'rganib dorivor o'simliklar haqida aniq tasavvurlarga ega bo'ladilar. Bu esa talabani dorivor o'simliklar haqidagi ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda, o'simliklar bilan ishlashda o'ziga xos xavfsizlik qoidalarini bilib olishga, dorivor o'simliklarni inson hayotidagi amaliy ahamiyatini kengroq tushunib yetishga imkon beradi.

Biologiya o'qitishni o'ziga xos moddiy texnika bazasini tarkibiy qismi bo'lgan o'quv tajriba uchastkasi ta'lim jarayonida o'ziga xos o'rin tutadi. O'quv tajriba uchastkasida talabalarining amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyati katta. Shu sababli ham dorivor o'simliklarni o'quv tajriba uchastkasini tashkil etish, dorivor o'simliklarni introduksiya qilish muxim rol o'ynaydi. O'quv tajriba uchastkasidagi ishlar talabalarda dorivor o'simliklar biologiyasi hamda agrotexnikasini keng o'rganishga imkon yaratadi va ulardagi mehnat madaniyatini tarbiyalashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quv tajriba uchastkasida yetishtirilgan dorivor o'simliklarni tabiiy xolda o'sadigan vakillari bilan solishtirish, laboratoriya sharoitida ularning tarkibini aniqlash va taqqoslashga talabalarni o'rgatish, talabalarni dorivor o'simliklarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dorivor o'simliklarni o'quv tajriba uchaskasida parvarish qilish metodikasi deb nomlangan qismida dorivor o'simliklarni o'quv tajriba uchaskasida ko'paytirish va parvarish qilish haqida ma'lumotlar berilgan. O'quv tajriba uchaskasidagi ishlar ta'lim oluvchilarda tashkilotchilik, jamoatchilik ko'nikmalarini, mehnat madaniyatini, estetik tuyg'ularni, o'simlikni ko'paytirish bilan tabiatni qayta ishlab chiqarish ko'nikmalarini tarbiyalaydi. Talabalar tomonidan dorivor o'simliklarni ko'paytirish va parvarish qilish bo'yicha tajriba uchaskasi uchun yerni tayyorlash, unumdorligi past bo'lgan tuproq unumdorligini oshirish, iqlim sharoitini hisobga olish, dorivor o'simliklarni ekigish uchun materiallar olish, dorivor o'simlik turlarini tanlash, urug'ni ekishga tayyorlash, o'simtalarni parvarish qilish metodikalari bilan talabalarni tanishtirish ochib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Pedagogik tajriba-sinov ishlari va uning natijali tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinov ishlarining dasturi va metodikasi, pedagogik tajriba-sinov ishlarining natijalari hamda ularning statistik tahlili bayon etilgan.

Pedagogik tajriba sinov natijalari uch bosqichda o'tkazildi.

birinchi – tayyorgarlik bosqichi, 2022/2023-o'quv yilida dastlab tajriba-sinovlar o'tkazilishi zarur bo'lgan oliy ta'lim muassasalari aniqlandi. Bu oliy ta'lim muassasasidagi talabalarning “Dorivor o'simliklar” fanidan bilim, ko'nikma va malakalari anketa va test so'rovlari, og'zaki savol-javoblar yordamida o'rganildi;

ikkinchi – o'qitish bosqichi, 2023/2024-o'quv yilida amaliy mashg'ulotlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, mavjud darslik, o'quv va o'quv-metodik qo'llanmalar yordamida fan mazmunini talabalarga samarali yetkazish ishlarini olib borishga alohida e'tibor qaratildi. Tajriba-sinov o'tkazilayotgan oliy ta'lim muassasalarida guruhlar tanlandi, ular tajriba va nazorat guruhiga ajratildi. Tajriba guruhidagi mashg'ulotlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etildi, axborot va kartografik texnologiyalarga asoslangan holda o'quv faoliyati tashkil etildi.

uchinchi – tasdiqlovchi bosqich, tajriba va nazorat guruhidagi talabalarning bilim darajalari nazorat ishlari, standart va testlar, savol-javoblar asosida aniqlandi, taqqoslandi va xulosalar chiqarildi. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining umumiy tahlili ishlab chiqildi. Bu bosqichda olingan natijalar umumlashtirildi, xulosalandi va matematik-statistika yordamida tahlil qilindi.

Pedagogik tajriba-sinov maydonlari sifatida Qoraqalpoq davlat universiteti, Buxoro davlat univesiteti, Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti tanlab olindi, jami 476 nafar talaba ishtirok etdi (1-jadvalga qarang).

2022-2025-yillar davomida olib borilgan tajriba ishlari natijalari mazmuni va tahlili ko'rib chiqilgan. Pedagogik tadqiqotlarni amaliyotga tatbiq etish va ularning samaradorligini aniqlashda tajriba-sinov ishlari alohida ahamiyat kasb etadi va bajarilgan ishning samaradorligini ko'rsatib beradi.

1-jadval

Pedagogik tajriba-sinov ishlariga jalb qilingan OTM va talabalar

OTMlar nomi	2022-2023- o'quv yili	2023-2024- o'quv yili	2024-2025- o'quv yili	Jami
Qoraqalpoq davlat universiteti	51	53	52	156
Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti	55	52	54	161
Buxoro davlat universiteti	52	54	53	159
Jami	158	159	159	476

Tadqiqot doirasida “Dorivor o‘simliklar” fanidan mashg‘ulotlarda talabalarning kasbga yo‘naltirib o‘qitish metodikasini takomillashtirish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Natijada, “Dorivor o‘simliklar” fani bo‘yicha mashg‘ulotlar jarayonida talabalarning kasbga yo‘naltirib o‘qitish orqali kasbiy faoliyatni rivojlantirish darajasini ta‘minlovchi ilmiy-metodik materiallar asosida dasrlik, o‘quv qo‘llanma, keys va Xalqaro baholashga oid topshiriqlar, tavsiyanoma va dars ishlanmalari yaratildi, ta‘lim jarayoniga tatbiq etildi. Talabalar bilimini nazarot qilishda test sinovlari, yozma nazorat ishlari, og‘zaki savol - javob metodlaridan foydalanildi.


